

16-01/111  
09.12.2024 y.



“TASDIQLAYMAN”

Viloyat hokimi v.b.

A.Boboyev

2024-yil \_\_\_\_ -dekabr

Viloyat hokimligida o'tkazilgan apparat yig'ilishi  
**BAYONI**

2024-yil 3-dekabr

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi:

A.Boboyev – viloyat hokimi v.b.

Ishtirok etganlar:

Viloyat hokiminining o'rinnbosarlari, guruh rahbarlari, kotibiyat mudirlari, boshqarma va tashkilotlar rahbarlari, shahar va tumanlar hokimliklari mas'ul xodimlari hamda tegishli korxona va tashkilotlar rahbarlari  
(ro'yxat bo'yicha).

**KUN TARTIBI:**

1. Aholiga transport xizmatlari ko'rsatish ahvoli to'g'risida.
2. Yangi yil bayramini yuqori saviyada o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida.
3. Boshqa masalalar.

**1-masala**

(Boboyev, Shukurov, Tojiyev, Rahmatullayev, shahar va tuman hokimlari, Boboyev)

**Kun tartibidagi masalalar yuzasidan yig'ilish qaror qiladi:**

1. Ishtixon (F.Ro'ziyev), Oqdaryo (Sh.Qudratov), Nurobod (S.Berdiqulov), Payariq (I.Jabborov), Kattaqo'rg'on (J.Nasriddinov) tumani hokimlariga Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-apreldagi “2022-2026-yillarda Samarqand viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 222-sod qaroriga asosan jamoat transport xizmatlarini rivojlantirish, yangi yo'nalishlarini tashkil etish

hamda transport xizmati bilan qamrab olinganlik darajasini past ekanligi ko'rsatib o'tilsin.

**2.** Viloyat IIB Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi (**Sh.Boyxo'rozov**), viloyat Transport boshqarmasi (**R.Tojiyev**) hududlarda noqonuniy faoliyat yuritayotgan yo'nalishsiz taksilar hamda o'zboshimchalik bilan joylarda avtoturargohlar tashkil etilish holatlarini bartaraf etish maqsadida qo'shma reyd tadbirlari o'tkazilishini ta'minlasin.

**Bunda**, Samarqand shahrining Dahbed va Rudakiy ko'chalari kesishmasida, Universitet xiyoboni hududida, "Hazora" ABB oldida, Shohizinda ko'chasing Siyob bozori ko'prigi ostidagi qismida doimiy tirbandliklarni bartaraf etish bo'yicha alohida choralar ko'riliши ham nazarda tutilsin.

**3.** Viloyat hokimining o'rnbosari (**A.Shukurov**), viloyati Transport boshqarmasi (**R.Tojiyev**), Samarqand shahri hokimi (**F.Umarov**) joriy yil yakuniga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-59-son qarori talablaridan kelib chiqqan holda avtobus yo'nalishlari hamda bekatlarni tartibga solish bo'yicha zarur choralar ko'rsin.

**4.** Oqdaryo tumani hokimi (**Sh.Qudratov**) Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-apreldagi "2022-2026-yillarda Samarqand viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 222-son qaroriga asosan tumanlarda avtostansiya qurish ishlarini o'rnatilgan tartibda boshlash chorasini ko'rsin.

## **2-masala**

---

(*Boboyev, Qobilov, Tuxbayev, Xudayberdiyev, Shukurov, Rahmatullayev, shahar va tuman hokimlari, Boboyev*)

**5.** Tuman va shaharlarida yangi yil bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni barcha xavfsizlik choralarini inobatga olgan holda o'tkazish bo'yicha tuman va shahar hokimlari mas'ul etib belgilansin.

## **6. Shahar va tumanlar hokimlari:**

yangi yil bayrami munosabati bilan hududlardagi ko'chalarni obodonlashtirish, ko'chalar yoqasidagi binolarni zamonaviy dizayn asosida bezash;

markaziy archa o'rnatish bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan kelishilgan holda dislokatsiyasini ishlab chiqish;

markaziy archani hamda ko'chalar yoqasidagi binolarni yangi yoritish uskunalarini hamda zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda bezatish;

o‘rnatiladigan archanining balandligi 25 metrdan kam bo‘limgan holda aholi xavfsizligini ta’minlash maqsadida atrofini temir panjara bilan o‘rash choralarini ko‘rsin.

7. Samarqand shahri hokimligi (**F.Umarov**), boshqarma va tashkilot rahbarlariga:

**3 kun muddatda** Samarqand shahrida asosiy bayram tadbirlari o‘tadigan joylarda hamda ko‘cha va xiyobonlarni bayramona bezash bo‘yicha loyiha taklifini kiritilishini;

markaziy ko‘chalar va xiyobonlarni kechki illyuminatsiya chiroqlari bilan bezash va joriy yil 20-dekabrdan 2025-yil 10-yanvarga qadar uzlusiz ishlashini;

har bir korxona, tashkilot va muassasalarda, mavjud bino va inshootlarda kechasi yonadigan rangli elementlarni yasashni, shiorlarni yozish va osishni, tungi illyuminatsiyalarni o‘rnatishni;

“Yangi yil shirinliklari” yarmarkasini Alisher Navoiy ko‘chasida o‘tkazilishini ta’minlasin.

8. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (**R.Qobilov, X.Tuxtayev**), Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi (**D.Ismoilov**), viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari (**B.Mirzayev**) bilan birgalikda:

keng jamoatchilikni jalb qilgan holda bayram arafasida “Eng chiroyli bezatilgan archa”, “Eng chiroyli bino” va “Eng namunali ko‘cha”, “Eng chiroyli bezatilgan tashkilot” hamda “Eng namunali tuman” nominatsiyalar bo‘yicha tanlov e’lon qilinishini;

tanlov g‘oliblarini aniqlash va rag‘batlantirish bo‘yicha hay’at a’zolari tomonidan besh kun muddatda nominatsiyalar bo‘yicha baholash mezonlari va tanlov nizomini ishlab chiqilishini;

nominatsiyalar bo‘yicha o‘rinlar va ularga beriladigan esdalik sovg‘alari yuzasidan taklif tayyorlab, viloyat hokimiga kiritilishini ta’minlasin.

9. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (**F.Abilov, Sh.Xudayberdiyev**) viloyat Soliq boshqarmasi (**E.Tolliyev**), viloyat Bozorlar va savdo komplekslari uyushmasi (**A.Radjabov**), viloyat Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti (**N.Mo‘minov**) bayram munosabati bilan arzonlashtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yarmarkalari o‘tkazish bo‘yicha dislokatsiyalarni belgilab, joriy yil 20-dekabrdan 31-dekabrga qadar o‘tkazilishini hamda olis hududlarda ko‘chma (mobil savdo) yarmarkalarini tashkil etilishini ta’minlasin.

10. Viloyat hokimining o‘rinbosari (**A.Shukurov**), “Hududgaz Samarqand” gaz ta’minoti filiali (**A.Muhammadiyev**), “Samarqand hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” aksiyadorlik jamiyati (**U.Nazarov**), “Suv ta’minoti” MChJ (**L.Xamidov**), tuman va shahar hokimlariga:

bayram arafasida viloyat aholisini uzlucksiz tabiiy gaz va elektr quvvati bilan ta'minlash;

gazlashtirilmagan aholi uylarini va ijtimoiy obyektlarni kuz-qish mavsumida suyultirilgan gaz balonlar bilan ta'minlash;

ijtimoiy soha obyektlari (maktab, mактабgacha ta'lim muassasasi, shifoxona, poliklinika, oilaviy shifokorlik punkti, kollej va boshqalar)ning kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holatidan kelib chiqqan holda mavjud muammolarni bartaraf etish;

favqulodda holatlarni oldini olish maqsadida hududlarda qo'l bola isitish vositalaridan foydalanishini o'rnatilgan tartibda taqiqlash choralarini ko'rsin.

**11.** Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (**R.Mamatov**), Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi (**A.Umarov**), viloyat Soliq boshqarmasi (**E.Tolliyev**), viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (**N.Kadirov**)

maxsus guruhlar tuzgan holda savdo majmularida pirotexnika vositalari bilan noqonuniy savdo qilish holatlarini aniqlash va faoliyatiga o'rnatilgan tartibda barham berish;

tadbir bo'lib o'tadigan hududlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha zarur choralar ko'rinishini ta'minlasin.

**12.** Viloyat boshqarma, tashkilot, korxona va muassasa rahbarlariga, shahar va tuman idoralari joylashgan ko'cha va xiyobonlarni, bino-inshootlarni loyiha asosida bezash tadbirlarini joriy yilning 20-dekabrga qadar yakunlasin.

**13.** Viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi (**S.Zayniyev**), viloyat Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi (**L.Rustamov**):

bayram tadbirdari o'tkazilishi rejalshtirilgan hududlarda tez tibbiy yordam brigadalari va malakali shifokorlarning navbatchiligi yo'lga qo'yilishini;

tuman va shahar markazlaridagi shifoxonalardan zaxira o'rinarini shakllantirib, ularda belgilangan miqdorda dori-darmon vositalari joylashtirilishini;

sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etilgan holda restoran va oshxonalar tomonidan sifatli mahsulotlar bilan savdo qilinish bo'yicha nazorat tadbirdari o'tkazilishini ta'minlasin.

**14.** Viloyat Madaniyat boshqarmasi (**O.Xaitov**) viloyatda faoliyat yuritayotgan teatrlar bilan birgalikda joriy yil 20-dekabrdan – 2025-yil 5-yanvarga qadar yangi yil tomoshalarini markaziy archalar yon atroflarida tashkil etsin.

**15.** Viloyat televideniyesi (**M.Ixtiyorov**), "Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalari birlashgan tahririyati (**F.Toshev**), "Овози Самарқанд" gazetasi (**B.Raxmonov**) yangi yil bayramiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish jarayonlarini keng yoritilishini hamda videoroliklar tayyorlab, televideniya orqali muntazag ravishda namoyish etib borish tavsiya etsin.

### **3. Boshqa masalalar**

(Boboyev, Xudayberdiyev, Tuxtayev, Shukurov, Rahmatullayev, shahar va tuman hokimlari, Boboyev)

**16.** Viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari (**B.Rahmatullayev**) viloyat hokimi boshchiligidagi o'tkazilgan apparat yig'ilishiga sababsiz ishtirok etmaganligi uchun Kattaqo'rg'on tumani hokimi J.Nasriddinovdan tushuntirish xati olinishini ta'minlasin.

**17.** Viloyat hokimining birinchi o'rinnbosari (**F.Abilov**), viloyat Soliq boshqarmasi (**E.Tolliyev**) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda mahallalardagi soliq inspektorlarini to'liq safarbar qilgan holda jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer solig'idan bo'lgan tushumlari to'ligicha mahalliy byudjetlarga tushishini inobatga olib, mavjud qarzdorliklarni dekabr oyi yakuniga qadar to'liq undirilishini ta'minlasin.

**18.** Viloyat Majburiy ijro byurosi (**S.Jabborov**) Majburiy ijro idoralarida undirilmay turgan 277,5 mlrd.so'mlik soliq qarzdorliklarini oy yakuniga qadar to'liq undirish bo'yicha barcha zaruriy choralarni ko'rsin.

**19.** Viloyat Soliq boshqarmasi (**E.Tolliyev**) soliq tushumlari bo'yicha kunlik tahliliy ma'lumotlarni sohalar va tumanlar kesimida viloyat hokimligiga kiritib borsin.

**20.** Viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (**Sh.Eshonqulov**), Samarqand shahri hokimi (**F.Umarov**) kuz-qish mavsumiga isitish qozonlari hamda tarmoqlarini ta'mirlash choralarni ko'rmaganligi sababli Samarqand shahri maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i Z.Nuriddinov hamda Samarqand shahridagi 47-maktab direktori Sh.Ismatullayevaga nisbatan qonunda o'rnatilgan tartibda chora ko'rib, natijasi bo'yicha viloyat hokimiga axborot kiritsin.

**21.** Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'i birinchi o'rinnbosari (**B.Mirzayev**), viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (**Sh.Eshonqulov**), tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda har bir tuman va shaharda bittadan maktablarni namunali maktabga aylantirish bo'yicha zarur choralar ko'rib, natijasi bo'yicha viloyat hokimiga axborot kiritsin.

**22.** "Samarqand hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" aksiyadorlik jamiyatasi (**U.Nazarov**) 2024/2025-yil kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish maqsadida hududlardagi joriy ta'mirga muhtoj transformatorlarni aniqlab, ulardagi kamchiliklarni bartaraf etish chorasi ko'rsin.

**23.** "Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali (**A.Muhammadiyev**) iste'molchilarga suyultirilgan gaz mahsulotlarini yetkazib berish bo'yicha hududlar kesmida grafik ishlab chiqib, hududlar aholisi inobatga olingan holda teng taqsimlanishini hamda aholiga o'z vaqtida yetkizilishi bo'yicha zarur choralar ko'rsin.

**24.** Toyloq (**B.Bobonazarov**), Oqdaryo (**Sh.Qudratov**), Jomboy (**Q.Sobirov**) tumanlari hamda Samarqand (**F.Umarov**), Kattaqo'rg'on (**G.Alimova**) shahri

hokimlari aholiga kuz-qish mavsumida ko‘mir yetkazib berish bo‘yicha belgilab berilgan reja-grafikni qisqa muddatlarda bajarilishini ta’minlasin.

**25.** Oqdaryo tumani hokimi (**Sh.Qudratov**) tumanning Bozorjoy mahallasida joylashgan 1,2-uylarni boshqaruv servis kompaniyalariga biriktirib, yer to‘la hamda fasad qismidagi kamchiliklarni bartaraf etish chorasini ko‘rsin.

**26.** Tuman va shahar hokimlariga ko‘p kvartirali uy-joylarni kuz-qish mavsumiga tayyorlash ishlari talab darajasida tashkil etilmayotganligi, buning natijasida aholining haqli e’tirozlariga sabab bo‘layotganligi ko‘rsatib o‘tilsin hamda bir hafta muddatda ishchi guruh tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha barcha zarur choralar ko‘rish topshirilsin.

**27.** Viloyat hokimining o‘rinbosari (**A.Shukurov**), “Suv ta’mnoti” MChJ (**L.Xamidov**) tuman va shahar suvoqova tashkilotidagi mavjud muammolarni o‘rganib, ularning yechimlari bo‘yicha asoslantirilgan takliflarni viloyat hokimiga kiritilishini ta’minlasin.

**28.** Tuman va shahar hokimlari “Yashil makon” loyihasi doirasida daraxt ekish rejasи bo‘yicha Kattaqo‘rg‘on tumani 64,2 foiz, Nurobod tumani 74,7 foiz, Ishtixon tumani 79 foiz, Narpay tumani 79,9 foiz, Payariq tumani 80,2 foiz bilan viloyat ko‘rsatkichida ortda qolayotganligi ko‘rsatib o‘tilsin hamda ko‘chat ekish ishlarini grafik asosida o‘z muddatida yakunlash chorasini ko‘rsin.

**29.** Viloyat Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (**Sh.Eshanqulov**) e-maktab ([Kundalik.com](http://Kundalik.com)) platformasiga o‘quvchilarning davomati bo‘yicha yolg‘on ma’lumot kiritib kelayotganligi sababli Samarqand shahri 27-maktab direktori v.b. X.Ibragimovga, Paxtachi tumani 35-maktab direktori v.b. K.Amirtoshovga, Jomboy tumani 9-maktab direktori G‘.Narziqulov, Pastdarg‘om tumani 3-maktab direktori A.Yo‘ldoshevga, 31-maktab direktori R.Abdushukurovaga hamda Bulung‘ur tumani 69-maktab direktori v.b. N.Boydullayevlarga nisbatan qonun hujjatlarida o‘rnatilgan tartibda “**hayfsan**” intizomiy jazo choralarini ko‘rish tavsija etilsin.

**30.** Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi (**A.Umarov**) Bulung‘ur tumanidagi 10-maktabga biriktirilgan xodim B.Tolipov, Kattaqo‘rg‘on shahridagi 1-maktabga biriktirilgan xodim A.Davurov va Pastdarg‘om tumanidagi 42-maktabga biriktirilgan xodim D.Xujanovlar surunkali ravishda dars qoldirib kelayotgan, o‘ziga biriktirilgan o‘quvchilarni darsga jalb etishda sustkashlikka yo‘l qo‘yanligi uchun qonun hujjatlarida o‘rnatilgan tartibda chora ko‘rish tavsija etilsin.

**31.** Tuman va shahar sektor rahbarlari ichimlik suvi ta’mnoti va oqova xizmatidan debitor qarzdorliklarni qisqa muddatlarda bartaraf etish chorasini ko‘rsin.

**32.** Mazkur yig‘ilish bayoni ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Yig‘ilish bayonini  
rasmiylashtirdi**

**E.Jonibekov**